Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

# ZAMONAVIY O'ZBEK POEZIYASIDA KONSEPTUAL TAHLIL: "QON VA SIYOH" SHE'RI MISOLIDA

Nilufar Sayfulloyevna Narzullayeva*
*Buxoro davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti*
✉ nilufarnarzulloyeva1997@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Najmiddin Ermatovning "Qon va siyoh" she'ri misolida badiiy matnni konseptual va lingvopoetik tahlil qilish masalalari tadqiq etiladi. Maqolada "Qon" (erk, milliy g'urur, fidoiylik) va "Siyoh" (mustabid tuzum, soxtalashtirilgan tarix) obrazlari o'rtasidagi dramatik oppozitsiya yoritilgan. Shuningdek, asardagi simvolizm, parallelizm hamda stilistik vositalarning g'oyaviy-estetik ta'sirchanlikni oshirishdagi o'rni ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar**

Najmiddin Ermatov, "Qon va siyoh", lingvopoetika, konseptual tahlil, "Qon" konsepti, "Siyoh" obrazi, oppozitsiya, parallelizm.

DOI: 10.5281/zenodo.21743517

## KIRISH

Poeziyada har bir davr ijodkori o'zining individual-mualliflik dunyoqarashini, botiniy kechinmalari hamda millat taqdiriga bo'lgan munosabatini muayyan ramz va konseptlar vositasida namoyon etadi. Zamonaviy filologiya va lingvokulturologiyada badiiy matnni konseptual tahlil etish - matn tubidagi yashirin kognitiv va estetik qatlamlarni ochib berishning eng samarali usullaridan biridir. Poeziyada qo'llaniladigan arxetipik timsollar shunchaki lisoniy birlik yoki tasviriy vosita doirasida qolmay, ijodkorning badiiy-falsafiy konsepsiyasini shakllantiruvchi va dunyoni anglash mezonini belgilovchi markaziy konseptlarga aylanadi.

Jahon va milliy poetik tafakkurda o'zining sirli, zalvorli va serqirra mohiyati bilan ajralib turadigan ana shunday qadimiy ramzlardan biri - "Qon" konseptidir. Falsafiy-estetik jihatdan qon - inson borlig'ining manbai, ontologik hayotiylik, etno-genetik o'zlik, erk yo'lidagi qurbonlik hamda avlodlar o'rtasidagi ruhiy-tarixiy rishtaning oliy aksidir.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida bu konseptni o'ziga xos teranlik, milliy shiddat va badiiy novatorlik bilan qayta kashf etgan ijodkorlardan biri - Najmiddin Ermatovdir. Uning lirikasi qadimiy turkiy arxetiplar, xalq og'zaki ijodining shiddatli poetikasi hamda mumtoz va zamonaviy poeziyamiz an'analaridan oziqlanadi. Shoirning 2024-yilda chop etilgan "Turon sog'inchi" she'riy to'plamida to'qson she'rning shartli ravishda "Jon", "Qon" va "Shon" nomli uch qur (bo'lim)ga ajratilishi hamda markaziy qismga "Qon" nomi berilishi ushbu konseptning uning poetikasida naqadar ustuvor o'rin tutishini ko'rsatadi. Ushbu maqolada Najmiddin Ermatov she'riyatining o'ziga xos estetik prinsiplari, ramzlar bilan ishlash mahorati hamda "Qon" konseptining badiiy-falsafiy hamda lingvopoetik qatlamlari tahlil etiladi.

## ASOSIY QISM

Shoirning ushbu to'plamida "Qon va siyoh" nomli she'ri mavjud bo'lib, ushbu she'r haqida filologiya fanlar doktori, professor Nurboy Jabbor "Haqiqat va bo'hton munozarasi" nomli maqolasida shoir "siyoh" obraziga mutlaqo yangi metodda yondoshganini, nazmda shu kunga qadar bu obrazga salbiy ma'no yuklanma-

ganini aytadi. To‘plamning bu 3 quri nomlanishi bejizga emas, uning birinchi bobi “Jon” da asosan muhabbat va ishq, “Qon” da el-yurt taqdiri, Turon zaminida o‘tmishida sodir bo‘lgan voqealar, g‘am-qayg‘u, armon kabi kechinmalar “Shon”da bugungi kun uchun bag‘ishlovlari va ruhiy qichqiriqlar aks etadi. Biz aynan to‘plamdagi “Qon va siyoh” she’rini tahlil etamiz. She’rda ikki zid qutb va ikki tushuncha - qon hamda siyoh o‘rtasidagi dahshatli dramatik muloqot va ziddiyat (oppozitsiya) ustiga qurilgan.

Qon - haqiqat, shahidlik, or-nomus, vatanparvarlik hamda milliy ruhiyatning timsoli.

Siyoh - amaldorlar qalami, sovuqqon mustabid apparat, soxlashtirilgan tarix va sovet mafkurasining sovuq va adolatsiz hukmi timsoli.

Bu ikki obrazning ketma-ket so‘z olishi kitobxonda dramatik sahnada kechayotgan dialogik to‘qnashuv taassurotini uyg‘otadi.

a) Birinchi bandlar: Fojianing boshlanishi va xarakterlar to‘qnashuvi

Qon:

- paq etdi, otildi o‘q.
Haq, degan ul o‘g‘lonning
teshilgan ko‘kragidan
bo‘y cho‘zdim gul misoli [1, B. 126].

She’r birdaniga shiddatli va dahshatli tovush - o‘q ovozi (*“paq etdi”*) bilan boshlanadi. Bu to‘satdan sodir bo‘lgan qatag‘on va fojianing boshlanishi. Lirik qahramon, jadid millat fidoyisi “Haq!” deb hayqirgani uchun otiladi. Qon bu o‘rinda o‘lim emas, balki “gul” bo‘lib bo‘y cho‘zish - ya’ni shahidlik orqali abadiylikka va mangulikka erishish timsoli sifatida keladi.

Siyoh:

- Paq etdi, otildi o‘q.
Zirhlangan qo‘nalqada
qondan qo‘rqqan qo‘lni va
ko‘rdim qog‘oz visolin[1, B. 126].

Xuddi shu soniyada “Siyoh” masalaning ikkinchi sovuq tomonini ko‘rsatadi. U voqeaga mutlaqo boshqa joydan - “zirhlangan qo‘nalg‘a” (mustahkam devorlar ortidagi saroy, XKK/KGB xonalari yoki sud kabineti)dan qaraydi. Zirh ortida o‘tirgan mustabid ijrochi qondan, xalq isyonidan qo‘rqadi; u bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, faqat “qo‘l va qog‘oz” (otuv buyrug‘i yoki soxta ayblov bayonnomasi) orqali muloqot qiladi.

b) Ikkinchi bandlar: Badiiy ziddiyat va fojianing cho‘qqisi

Qon:

- Avlodim, egilmagin,
boshingni tik tut, deya
jondan kechgan o‘g‘lonning
isyon to‘la ko‘ksidan
Vatan deya to‘kildim[1, B. 126].

Bu yerda Qonning oliy maqsadi - avlodlarga ma’naviy vasiyat va erk da’vati ekanligi namoyon bo‘ladi. Tilga olingan o‘g‘lon fojiasi shunchaki qurbonlik emas, kelajak uchun, millat boshi egilmasligi uchun qilingan fidoiylikdir. “Isyon to‘la ko‘ksidan / Vatan deya to‘kildim” satrlari shoirning milliy daxlsizlik va erk haqidagi falsafiy dunyoqarashini belgilab beradi.

Siyoh:

- Kelajakka soldim iz:
“Bosh egmadi isyonchi,
Xoin edi, otildi”.
Yillar o‘tib avloding
Boshin egib o‘qiydi[1, B. 127].

Siyoh bu yerda tarixni soxtalashtiruvchi va tuzum xizmatkoriga aylangan qalamdir. U kelajak avlod zindon bandi bo‘lib qolishi uchun o‘zining sovuqqon hukmini yozadi: *“Xoin edi, otildi”*. Bu orqali u nafaqat

otilgan kishining o‘zini, balki kelajakdagi avlodlarning ham boshini egishga (g‘ururini sindirishga, ma’naviy qul qilishga) urinadi.

c) Kulminatsiya va yakun

Qon: - Vatan deya to‘kildim.

Siyoh: - xoin deya o‘qilgay[1, B. 127].

Yakuniy ikki satr she’rning badiiy va konseptual g‘oyasini belgilab beradi. Bu ikki qisqa hukm ortida butun boshli millatning fojiasi yotadi: Haqiqat (Qon): Vatan uchun to‘kildi. Qog‘ozdagi tamg‘a (Siyoh): Xoin deb muhrlandi. Bu qarama-qarshilik kitobxon qalbida chuqur iztirob va mushohada uyg‘otadi: Tarixda qanchadan-qancha fidoiy millat farzandlarining pok qoni ma’lum bir davrlarda aynan shunday sovuq siyohlar bilan “xoin” deya qoralangan. Asarda qo'llangan obrazlar chuqur majoziy ma'nolarga ega: Qon - shunchaki hayotiy suyuqlik emas, balki tiriklik, ruhiy uyg‘oqlik, erk va fidoiylik timsoli sifatida gavdalanadi. Uniga qarama-qarshi qo‘yilgan Siyoh esa zulm, soxtalik, sovuq qonunlar hamda mustabid tazyiqni anglatadi. Bundan tashqari, matn g‘oyaviy shiddatining asosi parallelizm va kontrastsizm hodisalariga tayanadi. Har bir bandda qon va siyoh tushunchalarining o‘zaro ziddiyatli tarzda parallel kelishi va bir-biriga to'qnashtirilishi she’rning emotsional pafosini va lingvopoetik keskinligini yuqori bosqichga ko'taradi.

## XULOSA.

Najmiddin Ermatovning “Qon va siyoh” she’ri adolat va adolatsizlik, milliy xotira va uni o‘chirishga bo‘lgan urinishlar hamda shahidlik va tuhmat o‘rtasidagi manguni abadiy kurashni ochib beruvchi badiiy-filosofik asardir. Shoir so‘z san’atidagi ramzlar imkoniyatidan mohirona foydalanib, o‘zbek poeziyasiga milliy va tarixiy dardi o‘tkir bo‘lgan yuksak dramatik lirik namunani taqdim etgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Ermatov. Turon sog‘inchi. –T.: Akademnashr, 2024. –B.144.